


# Huquqiy ontologiya va gnoseologiya muammolari.


## REJA

1. Huquqiy ontologiya tushunchasi va uning mohiyati.
2. Legistik ontologiy. Tabiiy-huquqiy ontologiy.
3. Huquqiy qonun uning huquq borlig'ining (to'liq, tugallangan) shakli ekanligi.
4. Huquqiy gnoseologiya falsafaning tarkibiy qismi. Huquqiy gnoseologiyada bilish obykti.
5. Huquqiy bilishning predmeti. Huquqiy informatsiya.




«Ontologiya» atamasi yunoncha ikki soʻzdan «borliq» va «taʼlimot» soʻzlaridan olingan boʻlib, borliq haqidagi taʼlimot maʼnosini anglatadi. Umuman ontologiya tushunchasi falsafiy atama sifatida XVII asrda Goklenius va keyinchalik esa, X. Volf tomonidan ilk bor qoʻllanilgan. Borliq haqidagi falsafiy taʼlimotga qadimgi Sharq, qadimgi Yunon falsafiy manbalarida keng oʻrin berilgan boʻlsa-da, alohida taʼlimot, falsafiy yoʻnalish sifatida yuqorida qayd etilgan davrga kelib rivojlandi. Falsafada ontologiya taʼlimotiga katta hissa qoʻshgan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari jahon faniga maʼlum va mashhur. Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulugʻbek, Navoiy va boshqalarning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy taʼlimotlarida borliq haqidagi ilmiy-falsafiy gʻoyalar ilgari surilgan.

Ontologiya falsafa fanining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ontologik umumlashmalarda, ontologiya ta'limotining quyidagi yo'nalishlarini alohida qayd etish mumkin. *Birinchi*dan, abstrakt umumiylik asosida borliqning «sof» shakllari haqidagi ontologik ta'limot; *ikkinchi*dan, esa, ob'ektiv olamni bir butun moddiy asosi haqidagi ta'limot; *uchinchi*dan, ontognoseologik ta'limot, ya'ni borliq va uni bilish jarayonini bir butun, yaxlit hodisa deb tushunishdan iborat bo'lgan yo'nalishlar




*Huquqiy ontologiya* - huquq va uning qonunchilik amaliyoti bilan bog'liqligi va tafovuti haqidagi ta'limot. Huquqiy ontologiya va ijtimoiy-tarixiy amaliyot tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Huquqiy ontologiyada huquqning kelib chiqishi va uning tarixiy rivojlanishida insonning tabiat bilan munosabatlari alohida ahamiyatga egadir. Huquq umuman ijtimoiy-tarixiy tajriba bilan uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy-siyosiy amaliyotdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Shuning uchun ham, huquqiy borliqning asosini *tabiiy* huquqning ijtimoiy-tarixiy mohiyati hamda aql-zakovat bilan bog'liq *pozitiv* huquq tashkil qiladi

Legistik ontologiyaga ko'ra, huquq – davlatning majburiy amalga oshirilishi lozim bo'lgan qoidalar, normalar va hujjatlar hosilasi va ularning qat'iy bajarilishidir. Ularning talqinicha, huquqning borlig'i – empirik real (shu ma'noda pozitiv) hodisaning, ya'ni rasman hukmron xarakterdagi muayyan fenomen (hodisa)ning, qonunning mavjudligini anglatadi. Mazkur fenomenning realligi va pozitivligi normativ-huquqiy hujjat va huquqning manbai sifatida talqin etiladigan tegishli rasman hujjatlarning matni sifatida taqdim etiladi. Legistlarning hujjat matnining yuridik-dogmatik tahlilicha, uni legistik lingvistika va hermenevtika (matnlarni talqin qilish nazariyasi) nuqtai nazaridan talqin qilishga qattiq qiziqishi bilan izohlanadi.




Legistlarning nazariyasida hujjat matnini bu tariqa tahlil etish doirasidan tashqariga chiqadigan hamma narsa qandaydir metafizik, pozitiv va noreal hisoblanadi. Bunday yondashuvlarni tahliliy yurisprudensiya vakillari D. Ostin, I. Bentam rivojlantirgan. Rus huquqshunosi V.D. Katkov yurisprudensiyani «umumiy tilshunoslik» yordamida isloh qilib, hatto «huquq» soʻzidan voz kechish va uning oʻrniga «qonun» soʻzidan foydalanishni taklif etgan, chunki real voqelikda «alohida huquq hodisasi yoʻq» deb taʼkidlaydi.



*Tabiiy-huquqiy ontologiyaga ko'ra, huquq borlig'i ikki qarama-qarshi shaklda: huquqning haqiqiy borlig'i shaklida (bu tabiiy huquq borlig'i) va haqiqiy bo'lmagan borliq shaklida (pozitiv huquq borlig'i) ifodalanadi.*


Bunda tabiiy huquq va uning borlig'ining haqiqiyligi deganda, huquqning mazmunini ifodalovchi muayyan mohiyat sifatidagi huquqning ob'ektiv mavjudligi (xudo, tabiat, aql va boshqa tomonidan berilganligi) nazarda tutiladi. Ushbu ob'ektiv mohiyat huquqning haqiqiy, chinakam borlig'idir. Ob'ektiv mohiyatning haqiqiyligi bevosita mavjudlik xossasini ham o'z ichiga oladi.



Tabiiy huquq borlig'i huquqning chinakam borlig'i sifatida o'z-o'ziga yetarlidir, chunki bunday borliq – bu ayni vaqtda mohiyat borlig'i va mazkur mohiyatning hodisa sifatida bevosita mavjud bo'lishi va amal qilishdir. Tabiiy huquqiy mohiyat chinakam borliq shaklida va doirasida mavjud bo'ladi hamda o'zining zohir bo'lishi va amal qilishi uchun g'ayriborliq (haqiqiy borliqdan bo'lakcha) shakllarida namoyon bo'lish, mavjud bo'lish va amal qilishga ehtiyoj sezmaydi.


Tabiiy-huquqiy ontologiyaga ko'ra, huquqning g'ayriborlig'i, ya'ni huquqning haqiqiy borliqdan tashqari, haqiqiy mohiyat bilan o'xshash bo'lmagan tashqi hodisa shaklida mavjud bo'lishi esa haqiqiy bo'lmagan kishilar tomonidan yaratilgan huquqning haqiqiy bo'lmagan borlig'ida – pozitiv huquqning mavjud bo'lishi va amal qilishida o'z ifodasini topadi.






Huquq borlig'i 2 shaklining ajralishidan kelib chiquvchi tabiiy huquqiy ontologiya legistik yondashuvni (huquqning ob'ektiv mohiyatini inkor qilish va boshqa) to'g'ri tanqid qilishi bilan birgalikda ikkinchi tomonga – huquqning g'ayri borlig'i, zarurligini, ya'ni huquq mohiyatining davlat tomonidan o'rnatilgan umum majburiy huquqiy hodisa – huquqiy qonun (huquq mohiyatiga muvofiq pozitiv huquq) shaklida ifodalanishini inkor qilishga tomon og'ib ketadi.

*Huquqning haqiqiyligi – uning mohiyat sifatidagi haqiqiyligigina emas, balki uning umumiy majburiy huquqiy hodisa sifatidagi realligi hamdir*




*Libertar-yuridik ontologiyaga ko'ra, huquqning mavjudligi – bu huquqiy qonunning, ya'ni huquqning ob'ektiv mohiyatini (rasman tenglik prinsipining xossalari va talablarini) ifodalovchi pozitiv huquqiy hodisaning real, naqd borlig'idir.*

Huquq borlig'i uning mavjudligi va amal qilishi huquqiy mohiyat bilan huquqiy hodisa o'rtasidagi zarur aloqani taqozo etadi. Ularning o'zaro bog'liq bo'lgan birligi ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli va o'ziga xos boshqaruvchisi sifatidagi huquqdir.




Libertar-yuridik ontologiyaga ko'ra huquq borlig'i, ya'ni rasman tenglik huquqiy qonunda o'z ifodasini topadi. Huquqiy qonunda huquqiy mohiyat umumiy majburiy hodisa sifatida, ya'ni qonunning mohiyati, pozitiv huquq sifatida ifodalanadi, umumiy majburiy hodisa (qonun) esa o'zida mazkur huquqiy mohiyatni ifodalash shaklidan iborat bo'ladi va faqat shu sababdan huquqiy hodisa sifatida (huquqiy qonun sifatida) harakat qiladi, mavjud bo'ladi va amal qiladi.

***Huquqiy qonun*** – bu huquq borlig'ining lozim bo'lgan (to'liq, tugallangan) shaklidir, chunki mohiyat va hodisa faqat ushbu shaklda o'zaro aloqadorlikda va birlikdagi huquqiy mohiyat va huquqiy hodisani ifodalaydi.




Libertar-yuridik ontologiyaga ko'ra, rasman tenglik (ya'ni huquqiy mohiyat) – bu umummajburiy pozitiv huquqiy hodisa (qonun)ning mohiyati, umummajburiy pozitiv hodisa (qonun) esa – bu ushbu ob'ektiv huquqiy mohiyat (rasman tenglik) namoyon bo'lishi, ifodalanishi va aniqlashtirilishining davlat shaklidir.

Huquq borlig'i huquqiy mohiyat va huquqiy hodisaning zarur birligi sifatidagi huquqning odamlarning ijtimoiy turmushda tenglik, erkinlik va adolatning umummajburiy shakli sifatidagi huquqning botiniy o'zaro bog'liq bir-birini taqozo etuvchi xossalari hamda tavsiflari majmuini o'z ichiga oladi.




Huquqning libertar-yuridik tipi huquqiy normaga (huquqiy qonun normasiga) tayanib va uning nohuquqiy norma (nohuquqiy qonun normasi) bilan legistik almashtirilishini rad etib, huquqning normativligini yuridik tushunishni inkor etmasdan uni yanada rivojlantiradi.


Libertar-yuridik ontologiya nuqtai nazaridan vazifa huquqni normativlashtirishdan chiqarish emas, balki huquqiy hodisa sifatida, huquqning mavjud bo'lishi va amal qilishi shakli sifatida qonun normalarini yuridiklashtirishdir.



Huquq faqatgina ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib qolmay, balki madaniy hodisa, madaniyatning muhim belgilaridan hisoblanadi. Huquq va huquq borlig'ining asosiy xususiyatlaridan biri, uning umumbashariy madaniyatining bir qismi ekanligidadir. Huquqiy ontologiya va huquqiy madaniyat tushunchalari mazmunan yaqin tushunchalar hisoblanadi. Chunki huquq borlig'ining asosini huquqiy madaniyat tashkil etadi. Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas, balki qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir.




Huquq borlig'i, uning mohiyati haqida gap ketar ekan, uning ob'ektivligini e'tirof etmoq joizdir. Huquq borlig'ining ob'ektivligiga zid bo'lgan nohuquqiy qonunlar ham jamiyat tarixiy taraqqiyotida uchrab turadi, xususan totalitar tizim sharoitida nohuquqiy qonunlar rasman jamiyatda adolat, tenglik, insonlarni himoyalashga qaratilgan bo'lsa-da, o'z mohiyat e'tibori bilan esa hukmron ijtimoiy guruhlar, siyosiy tizim manfaatlarini himoya etishga qaratilgan bo'ladi. Qadimgi Rim huquqshunosi Pavelning ta'kidlashicha «huquq qoidadan (gediva) emas, balki mavjud huquqiy normalardan qoidalar shakllantirilmog'i lozim». Qoidalar, urf-odatlar, an'analar milliy ma'naviy qadriyatlarning ajralmas bir qismi sifatida pozitiv huquqning mavjudlik shakli bilan bog'liq bo'ladi.




Huquqiy legizm ta'limotiga ko'ra, mavjud qonun-qoidalardan huquqiy normalar yuzaga keladi. Faqatgina hokimiyat tomonidan o'rnatilgan normalar (qoidalar, tartiblar) va qonunlar huquqni keltirib chiqaradi va uning borlig'ini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Huquqning mohiyatini bunday legistiklarcha tushunish huquqni hokimiyat tomonidan qabul qilingan normalar majmuidan iborat qilib qo'yadi. Boshqacha aytganda, huquqiy borliq bu rasman iste'molda bo'lgan pozitiv huquq bo'lib, mavjud qoidalar, talablar yig'indisidan iborat. Bunday konsepsiya mohiyatiga ko'ra tautologik xarakterga ega bo'lib, legistlar tomonidan huquq borlig'ining normativligi deb e'tirof etiladi. Legistlar nuqtai nazaridan huquq – bu huquq va «normativ hujjatlar» yig'indisidan iboratdir. Holbuki, huquq va «normativ hujjatlar» ayni tushunchalardir. Huquqni bunday ta'riflash fikrimizcha, falsafa va mantiq qonunlariga zid hisoblanadi va bunday ta'riflashni «inson – bu odamsimon mavjudotdir»qabilidagi ta'riflarga o'xshatish mumkin.






Gnoseologiya yunoncha «gnosis» bilim, «logos» «ta'limot» so'zlaridan olingan bo'lib, bilish to'g'risida ta'limot ma'nosini anglatadi. Gnoseologiya bilish imkoniyatlari, bilimlarning voqelikka munosabati, bilishning asoslari va ularning qanchalik ishonchli va haqiqiy ekanligini o'rganuvchi ta'limot sifatida falsafa fanining tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiladi. Shuningdek, gnoseologiya falsafa fanining asosiy funksiyalaridan biri bo'lib ham hisoblanadi.

Huquq falsafasida huquqiy gnoseologiya masalasiga ham, huquqiy ontologiya singari 3 xil yondashuv mavjud. Bular legistik gnoseologiya, tabiiy-huquqiy gnoseologiya, libertar-yuridik gnoseologiya.




*Legistik gnoseologiya* asosida huquqni faqat rasman hokimiyatning buyrug'i, bajarilishi shart bo'lgan majburlovchi ko'rsatma sifatida e'tirof etish va bilish prinsipi yotadi. Legistik gnoseologiyaga asosan: 1) rasman hokimiyat buyruqlarining bajarilishi shart bo'lgan majburlovchi ko'rsatmalarning turlari, shakllarini, manbalarini aniqlash, tasniflash va tizimga solish; 2) qonun chiqaruvchining fikrini, nuqtai nazarini, ya'ni rasman hujjat matnida ifodalangan hokimiyatning tegishli buyruqlarining normativ-regulyativ mazmunini oydinlashtirishdan iborat deb biladi.




*Tabiiy-huquqiy gnoseologiya* o'zida huquqning ob'ektiv tabiati-ni anglashga, uning haqiqatiga etishga ilk nazariy (falsafiy-huquqiy, ilmiy) urinishni ifodalaydi. Bilishning bu yo'li huquqni nazariy tushunish va o'rganish sohasida fikrlash bilan bog'liq shart-sharoitlar hamda birlamchi bilish sxemasi sifatida tabiiy va pozitiv huquqni farqlashga olib keladi.

Tabiiy-huquqiy gnoseologiyada tabiiy huquqni sun'iy (pozitiv) huquqqa qarama-qarshi qo'yish prinsipi yoki o'zgarmas tabiiy huquqdan o'zgaruvchan pozitiv huquqning farqi masalasi tabiiy huquq to'g'risidagi barcha tasavvurlarning umumiy nazariy bilish asosi hisoblanadi. Bu prinsip ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish bilan birga «tabiiyning», «sun'iydan» so'zsiz ustunligini e'tirof etishni o'z ichiga oladi.



*Libertar-yuridik gnoseologiya* asosida huquq va qonunning farqlanishi hamda nisbatining mos kelishi yoki kelmasligining umumiy nazariyasi yotadi. Ushbu nazariya nazariy jihatdan rivojlangan shaklda huquqni mohiyat va hodisa sifatida tushunishning barcha asosiy hamda bilishning ahamiyatli jihatlarini ifodalaydi. Libertar konsepsiya nazariy bilish jihatdan muayyan huquq tushunchasi ko'rinishida qonun (pozitiv huquq) to'g'risidagi bilimlar va haqiqatni nazariy anglash va ifodalashning zarur gnoseologik modeli sifatida amal qiladi. Rasmiy tenglik uning mohiyati va prinsipi hisoblanadi.

Libertar gnoseologiya asosan davlatni rasman tenglik prinsipini ifodalanishi va amal qilishning institutsiyaviy hukmron shakli sifatida huquqiy tushunishning muhim yo'nalishi va tarkibiy qismi hisoblanadi.



*Huquqiy bilishning ob'ektini* jamiyatdagi bir butun huquqiy munosabatlar, jarayonlar, hodisalar, undagi qonun va qonun osti hujjatlar, huquqiy akt va normalar hamda mana shu huquqiy munosabatlarga u yoki bu holda ta'sir etuvchi barcha ob'ektiv omillar tashkil qiladi.

*Huquqiy bilishning sub'ektini* inson tashkil qiladi, faqat insongina o'zining ongi tufayli, o'zidan tashqarida mavjud bo'lgan huquqiy hodisalarga o'z munosabatini bildiradi. Faqat bildiribgina qolmasdan, uni takomillashtirib va rivojlantirib boradi.

Huquqiy bilishning muhim shart-sharoitlaridan biri faktlarni aniqlash bo'lib, unda fakt tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Fakt atamasi lotincha factum – so'zidan olingan bo'lib, bo'lgan voqea, bor narsa, haqiqat degan ma'noni anglatadi. Fakt – sub'ekt tafakkuri doirasidagi uning bilimlar tizimidagi borliqning bir fragmenti, bo'lagi bo'lib hisoblanadi. Fakt kundalik hayotda haqiqat, hodisa, natija ma'nosida qo'llaniladi. Huquqiy bilishda fakt deb, xaqqoniyligi isbotlangan empirik bilimga aytiladi.

***Empirizm*** – yunoncha– «empiriya» - tajriba so'zidan olingan bo'lib, aqliy bilishning rolga yetarli baho bermaydilar va hissiy tajribagina insonga dunyoning chinakam manzarasini yaratib beradi deb hisoblaydilar.

***Ratsionalizm*** – bilish jarayonida aqliy bilishning rolini mutlaqlashtiradi.